NAVOIY VILOYATI UCHQUDUQ TUMAN HOKIMINING QARORI

Uchquduq tuman A.Temur - 28 tel: (79) 222-00-05

2023 - yil 31 - oktabr 118-5-76-Q/23 Uchquduq tumani hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2024-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 28-aprelda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan “Aholi bandligi to‘g‘risida” 642-sonli Qonunning 38-39-moddalari, O‘zbekistonRespublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning 43-moddasi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2020-yil 15-oktabr, O‘RQ-641-son), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-57-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017-yil 24-maydagi PQ-3001-son Qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 22-son, 420-modda, 37-son, 982-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-sonli Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi 965-sonli qarori (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2017-yil, 09/17/965/0393-son) bilan tasdiqlangan Nizomga asosan 2024-yil

uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1.Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni (keyingi o‘rinlarda - ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar deb yuritiladi) ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilashi va zaxiraga qo‘yishi lozim bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi 965- sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun zaxiralangan ish o‘rinlari, xodimlarining o‘rtacha soni 20 nafar va undan ko‘pni tashkil etadigan 38 ta korxona, tashkilot va muassasalarda 2024-yil uchun 7 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorda - jami 356 ta ish o‘rinlarini, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko‘p bolali oilalarning ota-onalar toifasi uchun 7,87 foiz 28 (nafar);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik uyi”ning bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari toifasi uchun 56,46 foiz 201 (nafar);

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyaning, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar toifasi uchun 5,93 foiz 22 (nafar);

nogironlar bo‘lgan shaxslar toifasi uchun 4,49 foiz 16 (nafar);

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar toifasi uchun 1,97 foiz 7 (nafar);

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar toifasi uchun 5,90 foiz 21

(nafar);

odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxslar toifasi uchun 2,25 foiz 8 nafar;

og‘ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar toifasi uchun 14,89 foiz 53 (nafar)ni tashkil etadi.

3.Ushbu toifaga mansub shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko‘p bolali oilalarning ota-onalar toifasi uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lganligini hisobga olgan holda ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik uyi”ining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari toifasi uchun ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyaning, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar toifasi uchun - ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar toifasi uchun - o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olgan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan, yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar toifasi uchun – ularning

kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxslar toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

og‘ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari.

4.Ish o‘rinlarini band qiluvchi korxona va tashkilotlar rahbarlariga;

O‘zbekiston Respublikasi Aholi bandligi to‘g‘risidagi 642-sonli Qonun va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomga (keying o‘rinlarda - Nizom deb yuritiladi) muvofiq ushbu qarorning ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun tashkilot va korxonalar 2023-yil yakunlanishidan 10 kun oldin band qilingan ish o‘rinlari umumiy miqdorining kamida 25 foizi https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali zaxiralanib qo‘yilishini ta’minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlanguniga qadar tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazini tumandagi tashkilot va korxonalar https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali belgilangan ish o‘rinlarini zaxiralanganligi to‘g‘risida xabardor qilsin.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar, ya’ni 2024-yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlansin, bu haqda tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazini birinchi chorak tamom bo‘lganidan keyin 10 kundan kechikmay https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali ish o‘rinlari zaxiralanganligi to‘g‘risida xabardor qilsin.

Tashkilot har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etsin.

Tashkilot tomonidan ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

5.Tuman hokimining muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot va korxonalarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanishi qayd etilsin.

6.O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘iga (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3163) asosan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya ajratilishi tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda KQ va BKB deb yuritiladi) boshlig‘i v.b (I.Rasulov) zimmasiga yuklatilsin.

7.Tuman KQ va BKB boshlig‘i v.b (I.Rasulov) mazkur qarorni o‘n kun muddatda qarorning ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlariga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan o‘z nazoratni ta’minlasin.

8.Mazkur qaror “UCHQUDUQ” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

9.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Shakarov) zimmasiga yuklatilsin.

10.Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **S.Xamroyev**

Uchquduq tuman hokimining
2023-yil 31-oktabrdagi
118-5-76-Q/23-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori va “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonun talablariga asosan Uchquduq tumani bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj hamda ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2024-yilda band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

№	Zaxiralangan ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha topshiriq berilgan korxona nomi	Korxona tashkilot STIR (INN)	Shtat birligi bo‘yicha xodimlarning o‘rtacha umumiy soni	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtrish uchun ish o‘rinlarining eng kam soni	Shundan							
					o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari	umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar; “Mehribonlik uyi”ning bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar	nogironligi bo‘lgan shaxslar	pensiyaoldi yoshidagi shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar	odam savdosidan jabrlanganlar	Og‘ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar
1	NKMK AJ Shimoliy kon boshqarmasi	308425864	7929	120	6	80	4	5		5		20
2	NKMK DM Uchquduq hududiy boshqarmasi	308450922	1219	60	7	35	4	1	1	1	4	7
3	“Navoiyuran” davlat korxonasi Uchquduq ishlab chiqarish maydoni	201204514	1150	50	5	30	4	3		3		5
4	Uchquduq tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo‘limi	200011108	35	1								1
5	1-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206888468	33	1								1
6	2-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206886770	21	1								1
7	3-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	200011123	106	5	1	2	1		1			
8	4-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203481297	44	1		2						
9	6-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206888357	31	2		1						
10	7-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203168566	126	6		4						2
11	9-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203583716	76	4		3		1				
12	10-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203491103	119	8	1	2		1	2			2

13	11-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206888372	35	1								1
14	13-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206886763	50	1								1
15	15-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206888436	27	1				1				
16	18-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203686033	106	5	1	3						1
17	20-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206916653	128	6		4			1			1
18	10-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi	200011029	70	2		2						
19	Barkamol avlod bolalar maktabi	207108605	56	2		1						1
20	Uchquduq tuman sport maktabi	207231192	30	1		1						
21	1-sonli “Kaptarcha” DMTT	207015319	56	3		2		1				
22	2-sonli “Quyoshjon” DMTT	207015302	91	4		2	1					1
23	5-sonli “Yulduzcha” DMTT	207314627	54	1								1
24	8-sonli “Quyoncha” DMTT	305517371	20	1		1						
25	10-sonli “Baxtli bolalik” DMTT	306116499	43	2		2						
26	11-sonli Kelajak yulduzlari DMTT	306579872	44	1		1						
27	13-sonli “Laylakcha” DMTT	207314642	64	3		2		1				
28	14-sonli ”Ertak” DMTT	207314659	70	2		2						
29	15-sonli “Kamalak” DMTT	207314666	48	2		1						1
30	Uchquduq tuman “Issiqlik manbai” DUK	307122468	273	5	2	2						1
31	Uchquduq tuman tibbiyot birlashmasi	200010994	648	17	2	5	1	2		2	1	4
32	Uchquduq tuman SEO va JS	200010970	32	1		1						
33	Uchquduq tuman o‘rmon xo‘jaligi	200011004	43	2			1				1	
34	Uchquduq tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi	200011280	123	8		2		2	4			
35	Uchquduq tuman sanoat texnikumi	207139314	66	3		3						
36	Uchquduq tuman axborot-kutubxona markazi	306700058	24	1		1						
37	Uchquduq tuman obodonlashtirish boshqarmasi	206908433	160	11	1	2	3			3	2	
38	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ “Buxoro mintaqaviy temir yo‘l uzeli” UK Uchquduq tuman temir yo‘l masofasi	204837681	700	11	2	2	3			3		1
Jami			14248	356	28	201	22	16	7	21	8	53

**Izoh: Kvotalangan ish o‘rinlariga tuman sektor rahbarlari, hokim yordamchilari hamda oilava xotin qizlar bo‘limining tavsiyasi asosida ishga qabul qilinishi mumkin.*